



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шоқир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб


Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Раҳбархон Муртазаева ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХОРИЖДАГИ ВАТАНДОШЛАР БИЛАН АЛОҚАЛАРИНИ МУСТАҲКАМЛАНИШИ - УМУММИЛЛИЙ ТОТУВЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ.....	5
2. Diloram Babajanova AMIR TEMIR VA TEMURIYLAR DAVRINING ЎРГАНИЛИШИ.....	9
3. Eshov B.J. JANUBIY O‘ZBEKISTON JANON TAMADDUNI KONTEKSTIDA.....	16
4. Адолат Раҳманкулова ЭТНОКУЛЬТУРНОЕ МНОГООБРАЗИЕ УЗБЕКИСТАНА.....	22
5. Muborak Matyakubova XVI-XVIII ASRLARDA XIVA XONLIGINING IQTISODIY-MADANIY HAYOTI.....	30
6. Раушан Камалова СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ СОХРАНЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ И ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ У КАРАКАЛПАКОВ.....	38
7. Дилором Разикова ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ЯПОНИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: КЛЮЧЕВЫЕ ЭТАПЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ.....	49
8. Фаррух Разаков УЗБЕКСКАЯ ИСТОРИОГРАФИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ С ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В XVI-XIX ВВ.....	64
9. Iroda Sanginova O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING DAVLAT VA JAMIYAT ISHLARINI BOSHQARISHDAGI ISHTIROKI GENDER TENGLIGINIG ASOSI SIFATIDA.....	71
10. Турдыгул Пирниязова ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРИХИДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДАГИ БУЮК ҚУРИЛИШЛАР ХАЛҚ ХОТИРАСИДА.....	76
11. Кямаля Наджафова РОЛЬ АХМЕД БЕКА АГАЕВА И ЕГО ПАРТИИ “ДИФАИ” В БОРЬБЕ ПРОТИВ ДАШНАКСКОГО ТЕРРОРА В КАРАБАХЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА.....	81
12. Ибрагимжан Ташматов ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ И НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА СЕМЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	90
13. Shaxnoza Tasheva QASHQADARYODA MILLIY TIKLANISH DAVRIDA MADANIY MEROSNI ASRASH VA RIVOJLANTIRISH: (1991-2016YY).....	96
14. Umarali Shamayev MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXIY-MADANIY MEROS (ARXELOGIYA YODGORLIKLARI)GA BO‘LGAN E‘TIBORNING QONUN VA QONUNOSTI HUIJATLARIDA AKS ETISHI.....	101
15. Mirzabek Xolboyev FARG‘ONA VODIYSI OBLASTLARIDAGI ARXIV MUASSASALARI FAOLIYATI TARIXI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	106




UDK: 9(575.1)02(575.1.) (09)

Muborak Madrimovna Matyakubova,
Urganch davlat universiteti Tarix kafedrası dotsenti
E-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

XVI-XVIII ASRLARDA XIVA XONLIGINING IQTISODIY-MADANIY HAYOTI

For citation: Mubarak M. Matyakubova. ECONOMIC AND CULTURAL LIFE OF THE KHIVA KHANATE IN THE 16TH-18TH CENTURIES. Look to the past. 2025, Special issue 1, pp.30-37

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15754371>

ANNOTATSIYA

XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligida siyosiy tarqoqlik bo'lsada iqtisodiy va madaniy hayot rivojlandi. Xonlik poytaxti bo'lgan Xiva shahri ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Xonlikda ko'plab qurilish inshootlari, masjid va madrasalar saroy va jamoat binolari, qal'alar barpo qilindi, ulkan adabiy muhit vujudga keldi. Xon avlodidan ko'plab shoir va ijod ahli yetishib chiqdi, Xorazm shajaraviy tarixnavislik maktabiga asos solindi. Bu davrda xonlikning Rossiya, Buxoro va Qo'qon xonliklari, shuningdek, Xitoy, Eron, Afg'oniston va Hindiston davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari yanada kengaydi. Ichki va tashqi savdo munosabatlariga katta e'tibor qaratila boshlandi. Ichki va tashqi savdoda Xiva usti yopiq bozorlarning ahamiyati osha bordi. Ushbu maqolada XVI-XVIII asrlarda xonlikdagi iqtisodiy va madaniy sohada yuzaga kelgan o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, iqtisodiy-madaniy hayot, Abulg'ozı Bahodirxon, "Shajarai-turk", "Shajarai tarokima", hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, savdo-sotiq.

Муборак Мадримовна Матьякубова,
Ургенчский государственный университет,
доцент кафедры истории
E-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА В XVI-XVIII ВВ.

АННОТАЦИЯ

Несмотря на политическую раздробленность в Хивинском ханстве в XVI—XVIII веках экономическая и культурная жизнь процветала. Город Хива, столица ханства, стал центром науки и культуры. В ханстве было построено множество зданий, мечетей и медресе, дворцов и общественных зданий, крепостей, была создана прекрасная литературная среда. Из потомков хана вышло много поэтов и творческих личностей, была основана хорезмийская школа генеалогической историографии. В этот период еще больше расширились экономические связи ханства с Россией, Бухарским и Кокандским ханствами, а также с

Китаем, Ираном, Афганистаном и Индией. Большое внимание стало уделяться внутренним и внешнеторговым связям. Возросло значение крытых рынков Хивы во внутренней и внешней торговле. В статье дана информация об изменениях, произошедших в экономической и культурной сферах ханства в XVI-XVIII веках.

Ключевые слова: Хивинское ханство, экономическая и культурная жизнь, Абулгози Баходирхан, «Шаджарай-тюрк», «Шаджарай Тарокима», ремесла, земледелие, земледелие, животноводство, торговля.

Mubarak M. Matyakubova,

Urgench State University,

associate professor of the Department of History

E-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

ECONOMIC AND CULTURAL LIFE OF THE KHIVA KHANATE IN THE 16TH-18TH CENTURIES

ABSTRACT

In the 16th-18th centuries, despite political fragmentation, the Khiva Khanate developed economically and culturally. The city of Khiva, the capital of the Khanate, became a center of science and culture. Many buildings, mosques and madrasas, palaces and public buildings, fortresses were built in the Khanate, and a great literary environment was created. Many poets and creative people came from the Khanate's descendants, and the Khorezm school of genealogical historiography was founded. During this period, the Khanate's economic relations with the Russian, Bukhara and Kokand Khanates, as well as China, Iran, Afghanistan and India, expanded further. Much attention began to be paid to internal and external trade relations. The importance of the Khiva covered bazaars in internal and external trade increased. This article provides information about the changes that occurred in the economic and cultural spheres of the Khanate in the 16th-18th centuries.

Index Terms: Khiva Khanate, economic and cultural life, Abulgozi Bakhodir Khan, "Shajarai-Turk", "Shajarai Tarokima", crafts, agriculture, farming, animal husbandry, trade.

Kirish. Tarixan ma'lumki, 1512-yil Elbarsxon Xiva xoni deb e'lon qilindi va bu davrda Xorazm o'z yerlarini Turkmanistonning janubi, Eronning shimoliy Saraxs tumani, Orol bo'ylari va Mang'ishloqqacha kengaydi. XVI-XVIII asrlar O'rta Osiyo xonliklarida bo'lganidek Xorazm tarixi uchun ham feodal tarqoqligi va feodallarning o'zaro taxt talashuvi avj olganligi bilan xarakterlanadi. Xonlikda markaziy hokimiyat kuchsizlandi, natijada Xorazm Eron va Buxoro xonlari tomonidan ketma-ket talanib turdi. Bularning barchasi xonlik iqtisodiy va madaniy hayotini izdan chiqardi, mehnatkash xalqni xonavayron qildi. Bir vaqtlar gullab-yashnagan shahar va qishloqlar mavqei pasayib, savdo va hunarmandchilik inqirozga uchradi [1, b.247]. Bu davrda har bir hukmdor o'z mulkida mustaqil boshqaruvga ega bo'lishga intilib, Arab Muhammadxon (1602-1623) va Asfandiyorxon (1623-1643) davrida ichki tanazzul yanada avj oldi. Siyosiy vaziyat keskinlashgan bir paytda xonlik hududiga qozoqlar, Ural kazaklari, qalmiqlar va Buxoro lashkarlari bir necha bor yurish qildilar. Arab Muhammadxon o'g'li Abulg'azi Bahodirxon (1643-1663) va uning vorisi Anushaxon davrida (1663-1687) ham xonlikda vaziyat og'irligicha qolaveradi [2, b.117]. XVIII asr oxirlarida xonlik taxti yangi sulola o'zbeklarning qo'ng'irotlar sulolasi qo'liga o'tadi. Xonlikda bu kabi siyosiy vaziyatlarning o'zgarishi davlatning iqtisodiy-madaniy hayotiga ma'lum darajada ta'sir qildi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi

Bu davrga oid Xiva xonligi tarixi, madaniyati va iqtisodini tadqiq qilishga qaratilgan dissertatsiyalar va bir qator izlanishlar amalga oshirilgan. Bulardan M.Matniyozov, M.Matkarimov, A.Abdurasulov, M.Abdurahmonov, E.Axundjonov, M.Ismailova, G.Ismoilova, M.Madaminov, M.Mamajonov, O. Masaliyeva, O. Mutalov, S. Saburova, N. Polvonov, M.Qayumov, K.

Xudoyberganov, F. Ernazarov va N.A. Allayeva, U. Sheripov, S.Matkarimova larning tadqiqot ishlarini keltirib o'tish mumkin.

Tahlil va natijalar.

Xonlik iqtisodiy hayotida qishloq xo'jaligi muhim ahamiyat kasb etgan. Xonlik aholisi asrlar davomida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilik u bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligining asosiy mashg'ulotiga aylangan. Dehqonchilikda g'alla, paxta va poliz mahsulotlari yetishtirish yetakchi o'rin tutgan. Ekinzorlarning yarmidan ko'piga g'alla ekilgan. G'allachilikda kuzgi bug'doy ekish yetakchi o'rinni egallagan. Dehqonlar mashaqqatli mehnati evaziga don ekinlaridan mo'l hosil olishga erishgan. Xivaga kelgan yevropalik sayyoh Xerman Vamberining quyidagi so'zlari buni tasdiqlaydi: "Men Germaniyaning o'zida dalada ishlovchilarning Xivadagidek mirishkorligini ko'rmaganman". Bundan ko'rinadiki, xonlik aholisi o'zining mehnatkashligi va chidamliligi bilan chet ellik sayohlar e'tiboriga tushgan. Don ekinlari ichida bug'doy yetishtirish yetakchi o'rinda, jo'xori ekish bug'doydan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Sholi esa, asosan, sersuv hududlarda yetishtirilgan. Ekinzorlarning 1/5 qismida paxta yetishtirilgan. Xonlik iqtisodiyotida pillachilik ham muayyan ahamiyatga ega bo'lgan. Poliz mahsulotlari ichida Xorazm qovunining dovrug'i keng yoyilgan. Bundan tashqari, xonlikda bog'dorchilik ham dehqonchilikning rivojlangan sohalaridan biri edi. Xonlikdagi o'troq aholi dehqonchilik, ipakchilik bilan shug'ullangan bo'lsa, ko'chmanchilar esa chorvachilik bilan shug'ullangan. Chorvachilikda qo'y, echki, tuya, qoramol va otlar boqilgan. Ayniqsa xonlikda qorako'lchilik yaxshi rivojlangan [3].

Xonlik aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti sun'iy sug'orish vositalari bilan bog'liq. Shu sababdan xonlikda sug'orish inshootlari qurishga alohida e'tibor qaratilgan. 1618 yilda Xorazmning eng yirik kanali Shohobod (Shovot), XVII asrning uchinchi choragida Yermish kanali va Qilichniyozboy kanallari qazilgan[4, b.303].

XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligi iqtisodining asosini soliqlardan tushgan pullar tashkil qilgan. Bu davrda xonlikda yerlarning bir qismi hukmronlik qilayotgan sulola a'zolariga (to'ralar), shuningdek harbiy boshliqlarga (sarkardalarga) hamda vaqf yerlari sifatida masjid-madrasalarga berilgan. Bu yerlarda ishlovchi ijarachilar "bevatanlar", "yarimchilar" deb atalganlar. Mehnatkash aholi "salg'ut" deb atalgan yer solig'ini to'lagan. Xonlikda "begar" deb atalgan davlat majburiyati bo'lib, bunda asosan har bir xonadondan bir kishi 12 kun davomida ishlab bergan [5]. Qishloq xo'jaligida qo'l mehnatidan foydalanilgan. Bu o'z navbatida xonlikda iqtisodiy ahvolning yomonlashuviga olib kelgan. Shuningdek, o'zbeklar bilan turkmanlar o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar, Buxoro xonlarining Xiva xonlari ichki ishlariga aralashuvi, Qozoq qolmiqlarini to'xtovsiz hujumlari, Eron shohi Nodirshohni Xorazmni 1740-yilda bosib olishi (Elbarsxon davrida) natijasida XVIII asr boshlariga kelganda xonlikda iqtisodiy tushkunlik vujudga keladi. Shunday bo'lsada, Xiva xonligida hunarmandchilik va savdo sotiq rivojining davomiyligi ko'riladi. Xonlikda hunarmandchilikning 27 sohasi (amalda esa ular bundanda ko'p bo'lgan) mavjud bo'lib, hunarmandchilik tarmoqlari odatda qo'l mehnatiga asoslangan edi. Hunarmand malakali usta bo'lishi uchun ko'p yil mashaqqatli mehnat qilgan. Hunarmandlar o'z uyushmalariga ega bo'lishgan va uyushmalar hunarmandlarning faoliyatini tartibga solib turgan. Uyushma rahbari xonning xazina siyosatini o'tkazuvchi shaxs ham hisoblangan. Xiva ustalarining juda oz qismi xususiy ustaxonasi ya'ni o'z do'koniga ega edi. Hunarmand o'z uyida ham do'kon ochishi mumkin edi. Ko'pchilik hunarmandlar xonga va boshqa badavlat kishilarga tegishli do'konlarni ijaraga olib mehnat qilishgan. Ayrim hunarmandlar buyurtma asosida ham ishlaganlar [6, b.103].

Xonlikning ichki va tashqi savdosidan davlat xazinasiga katta miqdorda daromad tushib turgan, shu sababdan ichki va tashqi savdoga katta e'tibor qaratilgan. Ichki va tashqi savdoda Xivaning usti yopiq bozorlari alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bozor yo'lining ikki tarafiga ustaxona-do'konlar qurilgan. Bozordagi savdo o'rinlaridan foydalanganlik uchun tagjoy deb ataluvchi alohida soliq olingan. Xonlikdan qorako'l teri, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari Eron, Hindiston, Xitoy va Turkiya kabi davlatlarga eksport qilingan. XVI asr oxirlaridan boshlab, Rossiya bilan ham savdo-sotiq birmuncha yo'lga qo'yilgan. Rossiyaga Xiva elchilari, asosan, gazlama va to'qilgan buyumlar olib borishgan. Chunonchi, Xiva elchisi 1620-yilda Qozon shahrida 670

kiyimlik mato sotganligi manbalarda qayd etilgan. Shuningdek, Rossiya gila, qoqi meva, qorako'l terisi, o'simliklardan tayyorlangan bo'yoqlar ham olib borilgan. Xiva savdogarlari Rossiyaning Nijniy Novgorod yarmarkasida faol qatnasha boshlaganlar [6, b.103]. Rossiyadan esa Xivaga oltin va kumush tangalar, mis, cho'yan, temir va boshqa metallar, paxta, shoyi va jun gazlamalar, bo'yoqlar, qand, choy, billur idishlar, ko'nlangan charm kabi mahsulotlar olib kelingan. Ammo, XVI asr oxiriga kelib Amudaryoning o'zanining o'zgarishi Xorazmning tashqi savdo aloqalariga ham ta'sir ko'rsatdi. Xorazmning sobiq savdo markazlari o'z ahamiyatini yo'qotgani sababli, Rossiya bilan savdo aloqalarida Volga qo'ylari orqali o'tadigan yo'llar muhim ro'l o'ynay boshlagan. Astraxanda xivalik savdogarlarga Rossiya savdo yarmarkalarida qatnashganliklari uchun imtiyozlar berilgan. XVIII asr o'rtalaridan Orenburg shahriga asos solinganidan so'ng xivalik savdogarlar Ural bo'ylab savdoni yanada jonlantiradilar [7, b.170]. Xiva xonligi savdogarlari nafaqat Rossiya balki, qo'shni Buxoro va Qo'qon xonliklari, shuningdek, Xitoy, Eron, Afg'oniston va Hindiston bilan savdo-sotiq olib borganlar. Bu mamlakatlarga Rossiyadan olib kelingan mahsulotlar bilan bir qatorda mahalliy mahsulotlar (zargarlik buyumlari, gilamlar, otlar) ham eksport qilingan [7, b.170].

Xiva xonligidagi shaharlar savdo yo'llarining kesishgan joyida joylashgan bo'lib, shaharlarda bozorlarda turlik tovarlar, jumladan ipak, tuz, paxta, dehqonchilik mahsulotlari va qo'lda yasalgan buyumlar savdosi olib borilgan. Shaharlarda hunarmandchilik va san'at rivojlangan, masalan, gila to'qish, tikuvchilik, metallarni qayta ishlash, keramika va boshqa sohalar taraqqiy qilgan. Shuningdek, Xiva shaharlarida masjidlar, madrasalar va kutubxonalar qurilgan. Ularning aksariyati diniy bilimlar va ilm-fan rivojiga xizmat qilgan.

Xonlikning madaniy hayotida qadimiy, madaniy an'analar saqlanib, ular sekin-asta rivojlantirilgan. XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligida qurilish va me'morchilik ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Bir qancha madrasalar, masjidlar, saroy va jamoat binolari, qal'alar qurilgan. Xivada shu davrda qurilgan binolardan Arab Muhammad madrasasi (1616 y), Anushaxon masjidi hamda hammomi (1667y) Sherg'ozixon madrasasi (1718-1719 y) va Muhammad-inoq madrasasi Ko'hna Ark, Sayid Alovuddin maqbarasi, Oq machit (XVII asr) kabilar shular jumlasidandir. Ularda Xorazmning o'tmishdagi qurilish, me'morchilik san'atining eng yaxshi an'analari davom ettirilganligini ko'rish mumkin. Madrasa va masjid binolari ancha sodda va oddiy bezaklar hamda rang-barang bo'yoqli koshinlar bilan bezatilgan [1,b.248].

XVI-XVIII asrning birinchi yarmida Xiva xonligida ilm-fan rivojlanishdan to'xtamadi. Xiva xoni va tarixnavis olim Abulg'ozzi Bahodirxon "Shajarayi turk", "Shajarayi tarokima" nomli tarixiy asarlarning muallifidir. U o'z davrining davlat arbobi, atoqli tarixnavisi bo'lish bilan bir qatorda, tib ilmini yaxshi bilgan va bu borada "Manofi' ul-inson" nomli asar yozgan. Asarining bir nusxasi 4107-inventar raqami bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zFA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda [8,b.107].

Abulg'ozixon qariyb 20 yil davomida (1644-1664) hukmrorlik qilgan. Lekin akademik Bo'riboy Ahmedovning xulosasi bilan aytganda, u "tarixda oliy hukmdor sifatida emas (tarixda jahonni titratgan ne-ne podshohlar o'tmadi, lekin ulardan nom-nishon qolmagan), balki yirik olim sifatida tarixda nomi qoldi. Darhaqiqat, Abulg'ozixon keng va chuqur ma'lumotli kishi edi" [8, b.217]. Abulg'ozixonning yirik asari "Shajarayi turk" nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664-yillarda yozilgan. Unda Xorazm XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi. [9]. Asar qisqa muqaddima va to'qqiz bobdan iborat: 1) Odam Atodan to turklarning qadimgi xonlaridan Mo'g'ulxongacha kechgan hodisalar zikri; 2) Mo'g'ulxondan Chingizxongacha bo'lgan tarix; 3) Chingizxonning tug'ilganidan to vafotigacha bo'lgan tarixi; 4) Chingizxonning uchinchi o'g'li Ugadoy qoon va avlodidan Dashti Qipchoqda podshoh bo'lganlar zikri; 8) Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon (XIII asr) avlodidan Movarounnahr, Qrim, Qozoq va Turonda xonlik qilganlar, shuningdek, Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li Tukay Temurxon naslidan Qrim, Qozoq va Movarounnahrda podshohlik qilganlar zikri; 9) Shaybon avlodidan Xorazm mamlakatida podshohlik qilganlar zikri [11, b.118].

"Shajarayi turk" asarining 9-bobi bevosita Xorazmning 1512-1663-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlangan. Bu asarlar rus va chet el sharqshunoslari o'rganilgan va bir necha

bor nashr etilgan. Mazkur asarning matni 1825 yili Qozon shahrida akademik Fren tomonidan nashr etilgan. Soʻngra bu asarning matni (1871) va fransuz tiliga qilingan tarjimasini 1874 yili Sankt-Peterburgdagi Sharq tillari institutining professori Demezov tomonidan nashr etilgan [9, b.9], “Shajarayi tarokima” (1658-1661 yillar orasida yozilgan deb taxmin qilinadi) deb atalib, turkiy qabilalarning, xususan, turkman qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli maʼlumot beradi. Asarda barcha turklarning afsonaviy podshosi Oʻgʻuzxon va uning avlodi tarixi, shuningdek, turkman urugʻlari (solur, bayondur, taka, yovmut, tevachi, Xizr eli, sariq, Ali eli, yozir, ersori va boshqalar) ning kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan. “Shajarayi tarokima”, muallifning soʻzlariga qaraganda, turkman mullalari, shayxlari va beklariniig iltimosi bilan yozilgan. Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasini, katta ilmiy tadqiqot bilan birga, 1958 yili A.N.Kononov (1906-1986) tarafidan Sankt-Peterburgda chop etilgan [10, b.28-38]. Mazkur asardan dunyo xazinalarida bizga yettita nusxasi maʼlum. Ulardan ikkitasi Rossiyada [14, b.92]. va qolgan beshta nusxasi Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHI saqlanadi [11, b.117]. Abulgʻozi Bahodirxon asarlari kitobxon uchun sodda turkiy tilda yozilgan. Shuning uchun ham ayrim olimlar uning asarlarini yangi oʻzbek tili yozma yodgorligi deb hisoblashadi. Vengriyaning mashhur sharqshunosi X.Vamberi “Abulgʻozining “Shajarayi turk” i uchun butun dunyo undan minnatdor”, deb yozgan. Shuningdek, Abulgʻozi Bahodirxonning topshirigʻi bilan “Dastur ul-amal” asari ham yozilgan, ammo hozirgacha bu asar muallifi hamon aniqlangan emas. Mustaqillik yillarida Abulgʻozixonning ilmiy merosi ustidagi tadqiqotlar oʻzgacha dolzarblik kasb eta boshlagan. “Shajarayi turk”ning kirill yozuvidagi toʻliq matni akademik Boʻriboy Ahmedov saʼy-harakati bilan zudlik bilan nashr etildi [12, b.189]. Bu nashrning bosh maqsadi asarni keng oʻquvchilar ommasiga mumkin qadar tezroq yetkazish boʻlgan.

Tarixchi olimlardan: Ya.Gʻulomov Xorazmning sugʻorilishi tarixini [4, b.303], G.A.Agzamova Xiva xonligida shaharlar va shaharsozlik madaniyati tarixini [13] N.A.Allaeva Xiva xonligining Eron bilan oʻzaro aloqalarini [14], sharqshunos olimlar; akademik B.Ahmedov Oʻzbekiston davlatchiligi va manbashunosligi tarixi masalalarini tadqiq qilishda [15], Q.Munirov Xiva tarixnavislik maktabi anʼanalarini [16] adabiyotshunoslardan H.Xudoynazarov Abulgʻozi va uning asarlarining oʻzbek adabiyoti rivojida tutgan oʻrnini [17], M.Abdullaeva “Shajarayi turk”ni “Boburnoma” bilan qiyoslab, bu ikki asarning oʻzbek adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyatini tadqiq etishda [18], tilshunos olimlarimizdan X.Doniyorov oʻzbek urugʻlari va shevalarini oʻrganishda [19], M.Turdibekov asarda uchraydigan atamalarini [20], N.Mamadaliyeva “Shajarayi turk”ning leksik xususiyatlarini [21], oʻrganishda Abulgʻozixon asarlarining qoʻlyozma nusxalari va keyingi yillarda chop etilgan nashrlaridan unumli foydalanganlar va unda uchraydigan maʼlumotlarga tayanib, baʼzi dolzarb ilmiy masalalar yuzasidan jiddiy ilmiy xulosalarni bildirganlar [22].

Xulosa va takliflar. XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligining iqtisodiy-madaniy hayoti koʻpgina taxt talashuvlari, ichki nizolar girdobida oʻtgan boʻlsada, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda davom etdi. Yangi sugʻorilish inshootlarining barpo etilishi, tarixiy imoratlar va meʼmoriy obidalarining bunyod etilishi, ilm ahlining tomonidan tarixiy va badiiy asarlarining yuzga kelishi buning yorqin ifodasidir.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Матниёзов М. Хоразм тарихи. I-жилд. – Урганч, 1996. 247-б. (Matniyozov M. History of Khorezm. Volume I. – Urganch, 1996. p. 247).
2. Eshov Bahodir. Oʻzbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent.2014.117-bet. (Bahadir Eshov. History of state and local administration in Uzbekistan. – Tashkent. 2014. p. 117).
3. Toshtemirov Oʻrol Abdullayevichning "Qoʻngʻirot inoqlari hukumronligi davrida Xiva xonligining ichki va tashqi siyosati"// Toshkent.2014. (Toshtemirov Urol Abdullayevich "Internal and foreign policy of the Khanate of Khiva during the reign of Kongirot Inoks"// Tashkent. 2014.)
4. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: 1959. 303-бет. (Ghulomov Ya. G. The history of irrigation of Khorezm. Tashkent.: 1959, page 303.)

5. Gulyamov H.G. Srednyaya Aziya I Rossiya: istoki formirovaniya mejsosudarstvennix otnosheniy T., "Universitet" 2005 g. 3-60 st.

6. H.N. Hamidov, Sh.E. Ernazarov, B.M. Raxmonov, R.I. Hasanov, N.S. Yunusova. O'zbekiston tarixi. Toshkent-2021. 103-bet. (H.N. Hamidov, Sh.E. Ernazarov, B.M. Rakhmanov, R.I. Hasanov, N.S. Yunusova. History of Uzbekistan. Tashkent-2021. Page 103.)

7. Qo'qon universiteti xabarnomasi. Xiva xonligida shaharlar hayoti. 170-bet. (Bulletin of Kokan University. Life of cities in Khiva Khanate. Page 170.)

8. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. –Т.: «Ўқитувчи», 1994. – Б.217. (Akhmedov B. Lessons from history. - T.: "Teacher", 1994. - P.217.)

9. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т. 2002, 9-бет. (Munirov.Q. Historiography in Khorezm (XVII-XIX and early XX centuries). Literature and art publishing house named after G. Ghulam. T. 2002, page 9.)

10. Самойлович А.Н. Одни из списков «Родословного древа туркменского» Абульгази-хана // ДАН-В. 1927. – С. 39-42; Кононов Л. П. Родословный туркмен, сочинение Абу-л-Газн, хана хивинского. -М.-Л., 1958. С. 20-27; Собрание, I, 72, №171; Каль Е. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской Публичной библиотеки. Т., 1889. – С. 52. – № 801. (г); Туманский А.Г. Абуль-Гази-Бохадур-хан, Родословная туркмен, Ашхабад, 1897 (по ташкентской рукописи). Шажарайи Тарокима. -Истанбул. 1937; Кононов А.Н. Родословная туркмен. (текст, перевод, комментарии и исследование). М. Л., 1958. Самойлович А.Н. По поводу издания Н. П. Остроумовым «Светоч ислама» // ЗВОРАО, XVIII. - С. 2-4; Бартольд В.В. Очерк истории туркменского народа. // Туркмения. Л., 1929. - С. 36. - Сочинения. Т. II. Ч.1. – С. 584-594; МИТТ. II. – С. 28-38. 14. Россиядаги нухалари тавсифига қаранг: Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. I. История. / Род ред. А.Н. Кононова. -МОСКВА: Наука. 1965. - С. 92-94. (Samoylovich A.N. Odni iz spiskov "Rodoslovnogo dreva Turkmenskogo" Abulgazi-khana // DAN-V. 1927. - S. 39-42; Kononov L. P. Rodoslovnyi Turkmen, essay by Abu-l-Gazn, Khan of Khivinsky. -M.-L., 1958. S. 20-27; Sobranie, I, 72, #171; Cal E. Persian, Arabic and Turkic Manuscript Turkestan Public Library. T., 1889. - S. 52. – No. 801. (g); Tumansky A.G. Abul-Gazi-Bokhadur-khan, Rodoslovnaya Turkmen, Ashgabat, 1897 (po Tashkent manuscript). Family tree of Tarokima. - Istanbul. 1937; Kononov A.N. Rodoslovnaya Turkmen. (text, translation, commentaries and essays). M. L., 1958. Samoylovich A.N. Po povodu izdania N. P. Ostroumovym "Svetoch Islam" // ZVORAO, XVIII. - S. 2-4; Barthold V.V. Essay on history of the Turkmen nation. // Turkmenistan. L., 1929. - S. 36. - Sochinenia. T. II. Ch.1. - S. 584-594; МИТТ. II. - S. 28-38. 14. See the description of copies in Russia: Dmitrieva L.V., Muginov A.M., Muratov S.N. Description of Turksk manuscripts Institute Narodov Azii. I. History. / Rod ed. A.N. Kononova. - MOSCOW: Nauka. 196)

11. Эшмурадов. М.Ж. Хоразм манбаларида давлатчилик тарихи. (Монография). –Т.: «Fan va texnologiya», 2011, 116. бет. (Eshmuradov. M.J. History of statehood in Khorezm sources. (Monograph). - T.: "Science and technology", 2011, 116. p.)

12. Абулғозийнинг ушбу асаридан 11 нухаси Тошкентда (Ўз ФА ШИ) ва олти нухаси Санкт-Петербургда сақланади. Қаралсин: СВР. История. С. 154-155; Ахмедов З. Историко-географическая литература. С. 72-78; Шу муаллиф. Тарихдан сабоқлар. - Б. 217-223. Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. Г. История. С. 93-94; Яна қаранг: Лекции И.Н. Березина, записанные студентом В. Игнатьевым в 1866 г., 4-я лекция. / Архив востоковедов ЛО ИНА АН СССР, разряд II, опись 1. № 31. В «Ученых записках ИВ АН СССР». VI, 1953. - С. 41 ва кейингилари (№29); Pertsch W. Die Handschriften-Verzeichnisse der königlichen Bibliothek zu Berlin. Bd. VI. Verzeichniss der türkischen Handschriften, Berlin. 1889. B. 228. №204; Rieu Ch. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Muzeum. London. 1888. 282a; Blochet E. Catalogue des manuscrits tures de la bibliothèque Nationale de Paris. T. I. Paris. 1932. 232. №141; Таржималари: Desmaisons P. Aboul-Ghazi Behadour-Khan. Histoire de Mogols et de Tatares...,

St.-Pbg 1, 1871 (матни). II. 1874 (таржима); Абулгази. Шаджарайи турк. Перевод Тредьяковского. (Казань) 1770; Родословное древо тюрков. Сочинение Абуль-Гази хана хивинского. Перевод и предисловие Г.С. Саблукова. Казань, 1906. (11 copies of this work of Abulgazi are kept in Tashkent (Uz FA ShI) and six copies in St. Petersburg. See: SVR. History. С. 154-155; Akhmedov Z. Historical and geographical literature. S. 72-78; This is the author. Lessons from history. - В. 217-223. Dmitrieva L.V., Muginov A.M., Muratov S.N. Description of Turksk manuscripts Institute Narodov Azii. G. History. S. 93-94; Read more: Lektsii I.N. Berezina, written by student V. Ignatevym v 1866 g., 4th lecture. / Archiv vostokovedov LO INA AN SSSR, razryad II, opis 1. No. 31. V Pertsch W. Die Handschriften-Verzeichnisse der königlichen Bibliothek zu Berlin. Bd. VI. Verzeichniss der turkischen Handschriften, Berlin. 1889. B. 228. #204; Rieu Ch. Catalog of the Turkish Manuscripts in the British Museum. London. 1888. 282a; Blochet E. Catalog des manuscrits tures de la bibliothèque Nationale de Paris. T. I. Paris. 1932. 232. #141; "Uchenykh zapiskakh IV AN SSSR". VI, 1953. - S. 41 and following (#29); Translations: Desmaisons P. Aboul-Ghazi Behadour-Khan. Histoire de Mogols et de Tatares..., St.-Pbg 1, 1871 (text). II. 1874 (translation); Abulgazi. Shadjarayi is Turkish. Perevod Tredyakovskogo. (Kazan) 1770; Rodoslovnoe drevo tyurkov. Sochinene Abul-Gazi khan of Khivinsky. Perevod i predislovie G.S. Sablukova. Kazan, 1906.)

13. Агзамова Г. Среднеазиатские центры торговли и пути связывающие их с Россией.: Дис.... канд. истор. наук. – Тошкент, 1990. – 195 л.; Агзамова Г. О караванных путях из Хивы в Оренбург // Общественные науки в Узбекистане. – 1991. – № 12. – Б.43 –48.; Агзамова Г. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. – Т., 2000. – 52 б.; Агзамова Г. XVI – XIX асрнинг биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти.: Тарих фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 348 б. (Agzamova G. Sredneaziatskie tsentry trgovli i puti svyazyvayushchie ix s Rossiey.: Dis.... kand. desire science - Tashkent, 1990. - 195 l.; Agzamova G. O karavannykh putyakh iz Khyvy v Orenburg // // Obshchestvennye nauki v Uzbekistane. - 1991. - No. 12. - B.43 -48.; Agzamova G. Crafts and trade in late medieval Central Asian cities. - T., 2000. - 52 p.; Obshchestvennye nauki v Uzbekistane. - 1991. - No. 12. - B.43 -48.; Agzamova G. Cities and urban life of Uzbekistan in the first half of the 16th - 19th centuries.: History of science. dr. ... diss. - Tashkent, 2000. - 348 p.)

14. Allaeva N.A. XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi o'zaro aloqalar. – B.24.; Shu muallif. Abulg'ozixon haqida yana bir so'z // Imom al-Buxoriy saboqlari. 2006. – № 3. – B.229-231; (Allaeva N.A. Relations between the Khanate of Khiva and Iran in the XVI-XVIII centuries. - B.24.; This is the author. Another word about Abulgazi Khan // Lessons of Imam al-Bukhari. 2006. - No. 3. - B.229-231)

15. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – B.194. (Ahmedov B. Sources of the history of Uzbekistan. - Tashkent: Teacher, 2001. - P.194.)

16. Xudonazarov H. Shajarayi turk va uning o'rganilishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 127 b; Xudonazarov H., Abulg'ozixon Bahodirxon tarixchi va adib. – Toshkent: O'zbekiston. 1994.- 54 b. (Khudonazarov H. Shajarayi Turk and its study. - Tashkent: Teacher, 1993. - 127 p; Khudonazarov H., Abulghozi Bakhodir Khan historian and writer. - Tashkent: Uzbekistan. 1994.- 54 p.)

17. Abdullaeva M. "Boburnoma" va "Shajarayi turk"ning qiyosiy-tipologik tahlili. Filol. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – 20 b. (Abdullaeva M. Comparative-typological analysis of "Boburnoma" and "Shajarayi Turk". Philol. science. name diss. autoref. - Tashkent, 2004. - 20 p.)

18. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968. – 100 b. (Doniyorov H. Genealogies and dialects of the Uzbek people. - Tashkent: Science, 1968. - 100 p.)

19. Turdibekov M.T. Abulg'ozixon Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari onomastikasi. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent. 2000. – 156 b. (Turdibekov M.T. Onomastics of Abulghazi Khan Bahadirkhan's work "Shajarayi Turk". Philol. science. name diss. - Tashkent. 2000. - 156 p.)

20. Mamadalieva N.S. Abulg'ozixon Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarining leksik xususiyatlari. Filol. fan.nomz. diss. – Samarqand, 2004. – 124 b. (Mamadalieva N.S. Lexical

features of Abulgozi Bahadirkhan's work "Shajarayi Turk". Philol. subject name diss. - Samarkand, 2004. – 124 p.)

21. Xamrayeva N. Abulg‘ozi Bahodirxonning ilmiy merosi va uning tarixiy ahamiyati // Qarshi:2023. (Khamrayeva N. Scientific heritage of Abulgozi Bahadirkhan and its historical importance // Karshi: 2023.)



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000